Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317059

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta’minlash;

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtisodiyotning turli tarmoqlari byudjet tashkilotlarini ta’minlash;

6) huquqiy hujjatlarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va chora-tadbirlarini amalga oshirish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Adabiyotlar:

1.Vahobov A. va boshqalar. Budjet - soliq siyosati yaxlitligi. O’quv qa’llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2005.285 b. Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O’quv qa’llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 84 b.

2.Malikov T., Xaydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O’quv qa’llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 245 b.

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MIKROKREDITLASHNING O‘RNI VA AXAMIYATI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIUAF “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Melixo‘jayev Yuusufxon Saydali o‘g‘li
TDIUAF “Bank ishi audit” yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Tadbirkorlikni rivojlantirishda mikrokreditlashning ahamiyati juda yuqori xisoblanadi. Bu, kichik va o‘rtacha bizneslarning moliyaviy muammo va qiyinchiliklari uchun yordamchi moliyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Tadbirkorlar mikrokreditlar orqali yangi bizneslar ochish, mavjud bizneslarni rivojlantirish, yoki talabalarini katta qilish uchun kerakli mablag‘larni olishadi. Bu esa biznesni kengaytirish, ish o‘rinini ko‘paytirish, ish joyida yangi ishchilarni ishga kirishini va shuningdek, axoli va turmush muhitini yaxshilashga imkon beradi. Mikrokreditlar aksariyat kichik miqdorda va qisqa muddatli bo‘ladi.So‘ngi bir necha yillar mobaynida yurtimizda bank tizimi tomonidan hududlarda tadbirkorlik sub’ektlarini moliyaviy qo‘llab- quvvatlash, shu jumladan, aholi bandligini ta’minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Joriy yilning birinchi choragida qariyb 93 mingta loyihaga jami 12,2 trln. so‘m miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltirildi. Shu bilan birga, xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub’ektlarining qariyb 3700 ta loyihasini moliyalashtirish uchun 500 mln. AQSh dollari ekvivalentida kredit mablag‘lari ajratilgan. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni

Published: 28.03.2024
Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Melixo‘jayev Yuusufxon Saydali o‘g‘li (2024). Tadbirkorlikni rivojlantirishda mikrokreditlashning o‘rni va axamiyati. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317059
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

davlat kafolatisiz jalb qilingan mablag‘lar hisobidan 400 mln. AQSh dollari miqdorida kreditlar yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5087- sonli qaroriga muvofiq, yurtimizda biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lami kengaytirildi, jumladan:

- Tadbirkorlik sub’ektlarining milliy valyutadagi bank kreditlari bo‘yicha kompensatsiya beriladigan kreditlar foizi miqdori Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan 1,75 baravarigacha oshirildi; ya’ni joriy yilning 1 mayidan tijorat banklari tomonidan berilayotgan milliy valyutadagi 25 foizgacha bo‘lgan kreditlari uchun kompensatsiya qo‘llanilishi mumkin.
- Tadbirkorlik sub’ektlariga bank kreditlari bo‘yicha kompensatsiya va kafilliklar kredit shartnomasining sonidan qat’i nazar berilishi qayd etildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari ijrosini ta’minlashda asosiy e’tibor, hududlarda yangi ish o‘rni yaratishga, xizmatlar ko‘rsatish va ishlab chiqarish hajmini oshiriga qaratilgan kichik loyihalar hamda aholini doimiy daromad manbalarini shakllantirish maqsadlarga qaratilmoqda. Xususan, 2021 yilda mazkur dasturlar doirasida 135 mingta loyihaga jami 3,2 trln. so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari ajratilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 4 barobarga ko‘p. 2023 yilning 31-yanvaridagi O‘zbekiston Raspublikasi Prezidentinig PQ-39-son qaroriga muvofiq shu yilda 13 trln. so‘m miqdorida kreditlar ajratish belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu ko‘rsatkich 2021 yilga nisbatan 4 barobar ko‘p.

Yoshlarni ish bilan ta’minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o‘z o‘rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishii eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020-yilgi 29 dekabr kuni parlamentga murojaatnomasida, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dolzarb ekanligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tdi va 2021 yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash yili” deb e’lon qilishni taklif qildi. Ushbu taklif jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xuddi shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqida ham yoshlarimizni “O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi” deb ta’rifladi. Azaldan yurtimiz o‘zining bolajonligi, yoshlarning kamoloti barcha davrlarda ustuvor bo‘lib kelgani bilan ajralib turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugun dunyo aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qilmoqda. Yurtimizda esa bu ko‘rsatkich e’tirof etsa arzigulik – aholining 60 foizdan oshiq qatlami kelajagimiz davomchilari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu ma’noda ham, O‘zbekistonni yoshlar mamlakati, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2023-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirishning hududlar kesimidagi maqsadli parametrlari (mlrd. so‘m)

T/r	Hududlar nomi	2023-yilda yo‘naltiriladigan mablag‘lar	Shundan:		
			Avval berilgan kreditlarning gso‘ndirilishi hisobidan	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan	Vakolatli banklarning resurslari hisobidan
JAMI:		**13 000**	**6 900**	**3 381**	**2 719**
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	950	457	342	151
2.	Andijon viloyati	1100	596	275	229
3.	Buxoro viloyati	1150	570	324	256
4.	Jizzax viloyati	790	364	135	290
5.	Qashqadaryo viloyati	1100	533	327	240
6.	Navoiy viloyati	780	396	204	180
7.	Namangan viloyati	950	641	159	150
8.	Samarqand viloyati	1100	668	231	200
9.	Surxondaryo viloyati	1091	572	278	241
10.	Sirdaryo viloyati	600	319	181	100
11.	Toshkent viloyati	1060	494	356	209
12.	Farg‘ona viloyati	1100	636	214	249
13.	Xorazm viloyati	941	484	266	191
14.	Toshkent shahri	290	171	89	30

Yoshlarni ish bilan ta’minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o‘z o‘rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishi eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me’yoriy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o‘zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ushbu soha boyicha yoshlarimizga nisbatan katta yengilliklar yaratilgan. Imtiyozli kreditlar berimoqda va qishloq joylarida esa “Har bir yoshga bir gektar” loyihasining amalga oshirilishi natijasida 65 mingga yaqin yosh dehqonlarga 54 ming gektardan ziyod yer ajratib berildi. Albatta, bu berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan yoshlarimiz talaygina. Masalan, birgina Namangan viloyatida – “Chust Textile” (aka-uka Ismatullaevlar), “Art Soft Holding” (aka-uka Boboxonovlar), Toshkent shahrida – “Techno export” (Sherzod Qosimov), Toshkent viloyatida – “New Way Industries” (Sardor Abbosxonov), Samarqandda – “Oxalik Oltin Bog‘i Mevasi” (Olim Soliev) kabi korxonalar o‘z faoliyatini “nol”dan boshlab, hozirgi kunda 10-15 million dollarlik mahsulot eksport qilmoqda. Ayni paytda ularning har biri minglab ish o‘rinlarini yaratib, nufuzli yirik kompaniyalarga aylangani diqqatga sazovordir.

Shuningdek, mikrokreditlashning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni, tadbirkorlarga ta’lim va maslahatlar ko‘rsatishda ham muhimdir. Mikrokreditlashning o‘nlab asosiy tamoyillari bor, masalan, biznes rejalashtirish va boshqarish, moliyaviy nazorat va xisob-kitoblarni saqlash, marketing va reklama ishlari, kafolatli kreditlar va boshqa bir qancha yordamchi xizmatlar. Barcha bu sabablarga ko‘ra, mikrokreditlashning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni juda ahamiyatli hisoblanadi va biznesni rivojlantirish uchun muhim vositalardan biridir. Mikrokredit orqali tadbirkorlar yangi imkoniyatlarni topib chiqishi mumkin va biznesni yanada kengaytirishi uchun zarur bo‘lgan kerakli mablag‘larni olishadi. Shu bilan bir qatorda yangi O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi 67-moddasida ,,Tadbirkorlar va investorlarning manfaatlarinihimoya qilish belgilab qo‘yildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorliknirivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil qilish to‘g‘risida” gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulknihar tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
4. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.01.2023-y., 07/23/39/0060-son
5. https://review.uz/